



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

REPETITION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

# TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_ F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

### ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval kitobni varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 30 ta topshiriq mavjudligini tekshiring. Agar topshiriqlar soni kamligi aniqlansa yoki kitob raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya nazoratchisiga ma'lum qiling.

Test topshiriqlari kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

33

### FANLAR:

- |                                 |                    |
|---------------------------------|--------------------|
| 1. <i>Ona tili va adabiyoti</i> | 1-30 topshiriqlar  |
| 2. <i>Biologiya</i>             | 31-60 topshiriqlar |
| 3. <i>Kimyo</i>                 | 61-90 topshiriqlar |

Kitob raqami: **1906981**

Toshkent – 2018



## ONA TILI VA ADABIYOTI

1. *Do'stingning senga sadoqatini bilmog'chi bo'lsang, uning eng yaxshi ko'rgan narsasini so'ra, o'shanda hamma narsa ayon bo'ladi. Shundan keyin ham qovog'ini solmagan do'stni boshga ko'tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak, uni chin do'st sanash kerak.*  
Matndagi nechta so'z shakl yasovchi qo'shimcha ta'sirida fonetik o'zgarishga uchragan?  
A) Ita B) 2ta C) 4ta D) 3ta
2. Qaysi gap imlosida olti o'rinda fonetik o'zgarish yuz bergan?  
A) Bu falokatga yo'liqqan odamning jon achchig'idagi qichqirig'i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi.  
B) Keyinroq ham ko'zimiz tushib turardi, biroq endi u shunday bir yuksaklikda va qamrovi shu qadar keng ediki, bu kengliklar bizga o'xshash jo'n odamlarning shuuriga sig'masdi.  
C) Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmadi.  
D) Shunday bo'lmog'iga asos bor edi, chunki ular bir ko'chada yashab, o'sib-ulg'aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi.
3. Imlosi to'g'ri yozilgan so'z birikmasini belgilang.  
A) laxja cho'g' B) lag'cha cho'g' C) laxcha cho'g'  
D) lahcha cho'g'
4. Quyida berilgan so'zlarning nechtasi o'zaro omonim asoslarga omonim qo'shimcha qo'shilishidan hosil bo'lgan omonim so'zlarga misol bo'la oladi?  
**tilim, chekim, terim, oqar, bo'g'ma**  
A) 3 tasi B) 4 tasi C) 5 tasi D) 2 tasi
5. Quyidagi qaysi gap(lar)da o'zaro shakidosh qo'shimchalar qatnashmagan?  
1. Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim bo'lishdi. 2. Agar sen olgan qarzingni o'z vaqtida qaytarsang, ularning ham senga bo'lgan ishonchi ortar edi. 3. Uchoving bu vazifani uddalading. 4. Sen ham meni shoshirmasdan ishni bitirsang bo'lardi.  
A) 3, 4 B) 1, 3 C) faqat 4 D) 2, 3, 4
6. Paytga xos belgini ifodalovchi qo'shimcha bilan yasalgan sifat qatnashgan gapni aniqlang.  
A) Shahzodaning dilini ma'yus, har kungi mudhish tuyg'ularga o'xshamagan, allaqanday pokiza hislar chulg'ab oldi.  
B) Tashqi ishlar vazirligi ushbu holatni batafsil o'rganib, to'liq bayonot beradi.  
C) Daryoga irmoqlar kelib qo'shilib turmasa, uning oqimi jo'shqin bo'la olmaydi.  
D) Bog'dagi sayroqi qushlar orasida bulbulning yoqimli ovozig'a yetadigani yo'q.
7. *Karim bir talay lolalarga qarab turib qoldi. Birdan hozirgi quvonch o'rnini hayrat egalladi. Og'izlarida bir nimalarni olib yugurayotgan chumolilarga ancha tikilib qoldi. Keyin lip etib turdi-yu, nariroqda lolalardan guldasta qilayotgan Nodirani chaqirdi. Mana, ko'rasan, yomg'ir yog'adi. Chumolilar inlarini berkityapti, — dedi. Karim to'g'ri aytgan edi. Sal o'tmay osmonni quyuyq bulut qopladi. Keyin rosa jala quydi.*  
Ushbu matnda sifat so'z turkumiga mansub so'z necha o'rinda qatnashgan?  
A) 3 ta B) 2 ta C) 5 ta D) 4 ta
8. *Mafkura muayyan bir millatni tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy qarashlarni butun bir tizimidir.*  
Gapda kelishik qo'shimchalari necha o'rinda xato qo'llangan?  
A) 2 B) 1 C) 3 D) 4
9. Qaysi qatorda shakl yasovchi qo'shimchalar bilan omonimlik hosil qila oladigan ravish yasovchi qo'shimchalar berilgan?  
A) -siz, -cha, -lay B) -in, -ma, -an C) -larcha, -in, -chak  
D) -siz, -lab, -larcha
10. Ravishning ma'nosiga ko'ra ikki turi qatnashgan gapni aniqlang.  
A) U kamtarona tabassum bilan sekin qarab qo'ydi.  
B) Norozilik bilan to'ng'illab o'rnimizdan turishga majbur bo'ldik.  
C) Borib anhordan endi suv ichaman deb engashganimni bilaman, changalzor asta shitirladi.  
D) Allamahalgacha farg'onalik chorvadorlar o'tovida gurunglashib o'tirdik.
11. Tarkibida ikkita qo'shma fe'l ishtirok etgan gapni belgilang.  
A) Sabr achitib gapiradigan nasihatgo'y: kishi tabiati undan ozor chekadi, lekin unga amal qilgan so'zsiz ulug'likka erishadi.  
B) Hilmi — yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi xususiyat.  
C) Bir kuni G'ayrat, Aql, Yurak — uchulasi hunarini maqtab, aytishib, tortishib qolishibdi.  
D) Ipak kiyim-kechaklar dazmollanmasligi ma'qul, agar zarur bo'lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig'ir tolasidan to'qilgan mato qo'yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmollanadi.
12. Qaysi gap tarkibida uch xil so'z turkumidan hosil qilingan yasama fe'llar mavjud?  
A) Odobli va adolatli inson qo'lidagi qalam odamlarni zavqlantiradi, bir-biriga birlashtiradi, do'stlikni mustahkamlaydi  
B) Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi  
C) Chollar kulgudan qotib qoldilar, ularning burishgan yuzlari ruhanib, ko'zlarini kulgu namladi  
D) Mirtursun xalifaning terakzoriga yaqinlashgach, qadamini sekinlatadi.
13. Holatga taqlid so'z hol vazifasini bajargan gapni toping.  
A) O'rdaklar karvoni pastlab uchib, qorayib yotgan yer ustida yana bir aylandi-yu, g'aqillab qumlik chetida sokin shovullagan qamishlar ustiga sho'ng'ib ketdi.  
B) Hozir qulfni daranglatib ochadigan kalitlarni yasaydigan ustalar qolmagan.  
C) Jannat xola nima bo'lganini bilolmay, devorga suyanganicha dag'-dag' titrab turardi.  
D) Chirs-chirs chaqmoq chaqar, temir shift dahshatli lopillar edi.
14. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaga oid birliklar qatnashgan gapni belgilang.  
A) Yuragini ezib turgan bu ezgin o'y-u fikrlar bilan chalg'ib, kech tushganini ham sezmay qolibdi.  
B) Boshqalar qatori o'zbek adabiyotida millatning o'ziga xos olami chuqur hamda ishonarli tasvirlangan asarlar bor.  
C) Yaxshilarni mahv etgan tuhmat va ig'vodan oldin yomonlarning chirkin qalbida hasad o'ti yongan.  
D) Yozuvchining vazifasi faqat yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjimoni bo'lish bilan cheklanmaydi.
15. *Shahzodaning dilini ma'yus, har kungi mudhish tuyg'ularga o'xshamagan, allaqanday pokiza hislar chulg'ab oldi.*  
Ushbu gapda to'ldiruvchilar qaysi bo'laklarga tobelangan?  
A) kesim, aniqlovchi B) aniqlovchi, aniqlovchi  
C) aniqlovchi, to'ldiruvchi D) kesim, kesim

16. Qaysi javobda quyida berilgan gapdagi juft so'zlarning sintaktik vazifasi to'g'ri ko'rsatilgan?  
Yakshanba kuni birin-ketin o'g'il-qiz, nevara-kelinlar yig'ila boshlashdi.  
A) hol, ega B) to'ldiruvchi, ega C) faqat ega D) ega, aniqlovchi
17. Barcha ikkinchi darajali gap bo'laklari kesimga bilvosita bog'langan gapni toping.  
A) Oyna opa o'sha xatni oxirigacha o'qiy olmadi, chunki hovli eshigini kimdir taqillatdi.  
B) Birozdan so'ng Shirinoy daladan qaytib keldi.  
C) Osmono'par baland binolar qurish avj olgan.  
D) Bu binoda "Rassomlik" va "Naqqoshlik" bo'limlarini ochish kerak.
18. Berilgan parchada qaysi gap bo'laklari uyushgan?  
Osmonning chekkasi sariq – kir uvadaga o'xshaydi. Bu kir shu'la qo'ynida past-baland uylar, shamolda egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora ko'rinadi. Pishqirayotgan shamol har xuruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surib tashlar edi.  
A) ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi B) ega, aniqlovchi, kesim C) kesim, hol, aniqlovchi D) kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi
19. Berilgan gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?  
Kimki tashlandiq yerni obod qilsa, bu yer o'shaniki bo'ladi.  
A) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap  
B) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap  
C) ega ergash gapli qo'shma gap  
D) kesim ergash gapli qo'shma gap
20. Yaxshi xislati bor: oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo'shni o'g'il-qizlarni ham - xullas, barchani sizlab gapiradi.  
Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri hukmlarni aniqlang.  
1) bog'lovchisiz qo'shma gap; 2) uyushiq bo'lak qatnashgan; 3) kiritma qatnashgan; 4) umumlashtiruvchi bo'lak qatnashgan; 5) ikki nuqta umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan oldin kelgani uchun qo'yilgan;  
6) umumlashtiruvchi bo'lak qatnashgan sodda gap  
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 6
21. Faqat jimlik tilaydi yurak,  
Sizdan bugun birgina o'tinch//  
Yolg'iz qo'ying meni, do'stlarim,  
Charchaganman, orom olayin.  
She'riy parchadagi // belgisi o'rnida qaysi tinish belgisi qo'yilishi lozim va nima uchun?  
A) nuqtali vergul, qo'shma gap qismlari mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo'lmagani uchun  
B) vergul, uyushiq bo'laklar bo'lgani uchun  
C) tire, qo'shma gap qismlarida zidlash munosabati ifodalangani uchun  
D) ikki nuqta, qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalangani uchun
22. Ko'kqamish ko'lidan suqsur uchirdim,  
Suqsurni izlagan lochin bo'laman.  
"Alpomish" dostonidan olingan ushbu so'zlar kimning tilidan aytilgan?  
A) Qultoy B) Qalding'och C) Barchin D) Alpomish
23. "Kitobimni o'qigan, ko'rgan, eshitgan kishi shohimni duo bilan yod qilsin deb (yozdim). Kelgusi avlodlar uchun uning nomi mangu esdalik bo'lsin deb (yozdim). Uning muhabbati bilan ko'ngillar to'lib, yodi bilan dunyo to'lsin deb (yozdim)... Men buni muhabbatimni yaxshi, (tugal) bilsin deb shohimga tortiq qildim".  
Ushbu parchada qaysi asarning yozilish sababi va zarurati haqida fikr yuritilgan?  
A) "Devonu lug'otit-turk" B) "Qissasi Rabg'uziy"  
C) "Qutadg'u bilig" D) "Hibatul-haqoyiq"
24. Maylni qo'yki, vola-u zor ul,  
Jon berib vaslig'a xaridor ul.  
Bo'ylakim hajr qo'ydi bag'rig'a dog',  
Manzil o'lmish edi anga ul bog'.  
Ushbu misralar "Mehr va Suhayl" dostonida qaysi qahramon ruhiy holatini aks ettirgan?  
A) Mehr B) Suhayl C) Jobir D) Navdar
25. Shermuhammad Munisning "Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lg'usi" deb boshlanadigan she'ri kimning g'azaliga bog'langan muxammas sanaladi?  
A) Mashrabning B) Alisher Navoiyning C) Boburning D) Fuzuliyning
26. Fitrat haqidagi ma'lumotni toping.  
A) "Yurt qayg'usi" degan turkum she'rlar yozib, bolsheviklar o'z yurtiga yanada ko'proq qayg'ular olib kelishini oldindan bashorat qilgan.  
B) Adibning ilk asari – "Tengdoshlar" qissasi harbiy xizmatdalgida yozilgan.  
C) "Sevgi afsonasi", "Yigit va qiz", "Yuksak qorliklardagi uchrashuv" singari bir qator kinossenariylari milliy kinomatografiya taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.  
D) "Uyg'onish", "Buloqlar", "Tong sirlari" singari she'riy to'plamlari bor.
27. Jinoyatchilar to'dasiga qo'shilib qolgan erka o'g'il Hamidulla O'lmas Umarbekovning qaysi asari qahramoni?  
A) "Sevgim sevgilim" B) "Fotima va Zuhra"  
C) "Urush farzandi" D) "Odam bo'lish qiyin"
28. Quyidagi misralar qaysi shoir qalamiga mansub?  
Muhabbat, ey go'zal iztirob,  
Ey ko'hna dard, ey ko'hna tuyg'u.  
Ko'kragimga qo'lingni tirab,  
Yuragimni to'kib qo'yding-ku.  
A) Abdulla Oripov B) Shavkat Rahmon  
C) Erkin Vohidov D) Muhammad Yusuf
29. "Dunyodagi barcha mavjud hodisalarning sirini hech bo'lmasa yuzakiroq bo'lsa ham bilmasklik – bu odamgarchilikdan emas..."  
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?  
A) "Hayrat ul-abror", Navoiy  
B) "Mahbub ul-qulub", Navoiy C) "Zarbulmasal", Gulxaniy  
D) "Nasihatlar", Abay
30. Furqatning qaysi g'azalida Yusuf (a.s.) nomi tilga olinib, talmeh san'ati qo'llangan?  
A) "Adashganman" radiffi g'azalida  
B) "Surating" radiffi g'azalida  
C) "Bormasmiz" radiffi g'azalida  
D) "Nozik" radiffi g'azalida
31. Hujayra qobig'i sellyulozadan iborat organizmlarga zarar keltiruvchi, hujayra qobig'i murein moddasidan iborat organizmlarni aniqlang.  
1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill;  
4) agrobakterium; 5) leyshmaniya; 6) zang zamburug'i;  
7) tamaki mozaikasi  
A) 1, 4 B) 2, 5 C) 3, 6 D) 6, 7

## BIOLOGIYA

32. Hujayra (a) va populyatsiya (b) darajasidagi hodisalarni aniqlang.  
1) mikrosporaning hosil bo'lishida bo'linish urchug'ining shakllanishi; 2) jigar qurtining metamorfozi; 3) genlar dreifi; 4) duplikatsiya; 5) parmeliyada suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) yapon, murg'ob qirg'ovullarining paydo bo'lishi; 7) o'tloqda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati  
A) a - 1, 3; b - 5, 7 B) a - 2, 4; b - 6  
C) a - 1, 4; b - 6 D) a - 2, 5; b - 7
33. Monomerleri glukozadan iborat birikmalarni aniqlang.  
1) insulin; 2) tripsin; 3) tirozin; 4) nukleaza; 5) lipaza; 6) kraxmal; 7) kletchatka; 8) glikogen; 9) amilaza; 10) t-RNK  
A) 3, 5, 10 B) 2, 6, 9 C) 1, 2, 4 D) 6, 7, 8
34. Qaysi javobda silliq endoplazmatik to'rdada (a) va ribosomalarda (b) sintezlanadigan ichki sekretsiya bezlari mahsulotlari to'g'ri juftlab ko'rsatilgan?  
1) insulin; 2) tripsin; 3) androsteron; 4) miozin; 5) somatotrop; 6) interferon; 7) estrogen; 8) xolesterol  
A) a - 3, 7; b - 1, 5 B) a - 3, 8; b - 1, 5, 6  
C) a - 3, 7, 8; b - 1, 2, 5 D) a - 1, 5; b - 2, 4, 6
35. Jinsiy ko'payish jarayonida hosil bo'lgan gametalarning 20%idan ulotriksning 128 ta yangi ipi hosil bo'lgan bo'lsa, jami hosil bo'lgan gametalar (a) va zigotalar (b) sonini aniqlang.  
A) a-320; b-32 B) a-1780; b-356 C) a-356; b-32  
D) a-480; b-48
36. Gorilla somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
1) profazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 2) anafazada xromosomalar soni 92 ta; 3) metafazada ikki xromatidali autosoma xromosomalar soni 46 ta; 4) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 92 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza G<sub>2</sub> davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 46 ta  
A) 4, 6 B) 2, 6 C) 4, 5 D) 1, 3
37. Guruhli xarakterga ega o'zgaruvchanlik haqidagi noto'g'ri fikrlarni aniqlang.  
A) o'zgarishlar bir xil yo'nalishda ega, ularning namoyon bo'lish darajasi har xil organizmlarda turlicha bo'ladi  
B) tur vakillarining deyarli barchasi uchun bir xilda bo'ladi, fenotipik o'zgaruvchanlik deyiladi  
C) o'zgaruvchanlik chegaralari genotip bilan aniqlanadi, bir xil yo'nalishli bo'ladi, irsiylanish xususiyatiga ega emas  
D) tur ichidagi xilma-xillikning birdan-bir manbai, oraliq formalarsiz paydo bo'ladi
38. Transgen organizm olish ketma-ketligini aniqlang.  
1) vektor konstruksiya yaratiladi; 2) kerakli gen qidirib topiladi; 3) sun'iy sharoitda yetuk organizm olinadi; 4) kerakli gen klonlanadi; 5) transgen hujayra yaratiladi  
A) 2, 4, 5, 1, 3 B) 2, 5, 4, 1, 3 C) 2, 4, 1, 5, 3  
D) 5, 3, 2, 4, 1
39. Bodiya (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang  
A) a - umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b - uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan  
B) a - atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan; b - gullar gulpoyaga uzun bandlar bilan birikadi  
C) a - asosiy gulpoyasi shoxlangan; b - atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan  
D) a - asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b - asosiy gulpoyasi shoxlangan
40. Achitqilarda spirtli achish jarayonida parchalangan (a) va hosil bo'lgan (b) moddalarni aniqlang.  
1) etil spirt; 2) glyukoza; 3) CO<sub>2</sub>; 4) AMF; 5) atsetat kislota; 6) fosfat kislota; 7) kraxmal; 8) ATF  
A) a-2, 8; b-1, 3, 4 B) a-2; b-1, 3, 8 C) a-7; b-5, 6, 8  
D) a-7; b-1, 3, 6
41. Dala qirg'bo'g'imi tushunchasi bilan mantiqiy bog'liq bo'lgan atamalarini aniqlang.  
1) urug; 2) ildizpoya; 3) ikki jinsli gametofit; 4) sporofit; 5) ayrim jinsli gametofit; 6) arxegoniy; 7) urug'kurtak; 8) endosperm; 9) anteridiy; 10) zigota; 11) spora beruvchi boshqoq; 12) sorus.  
A) 1, 3, 7, 8, 12 B) 2, 4, 5, 9, 11 C) 2, 3, 6, 7, 9, 10  
D) 4, 5, 6, 7, 9, 10
42. O'simliklarni qaysi xususiyatlariga ko'ra ikki va bir urug'pallali o'simliklarga ajratish mumkin?  
A) bargining tomirlanishiga ko'ra, poyasining yillar davomida yo'g'onlasha olishiga ko'ra va ildiz tizimining rivojlanishiga ko'ra  
B) bargining bandli yoki bandsiz bo'lishiga ko'ra, bargining tomirlanishiga ko'ra va gulqo'rg'onning oddiy yoki murakkabligiga ko'ra  
C) bargining tomirlanishiga ko'ra va gulqo'rg'onning oddiy yoki murakkabligiga ko'ra  
D) gulqo'rg'onning oddiy yoki murakkabligiga ko'ra, poyasining yillar davomida yo'g'onlasha olishiga ko'ra va ildiz tizimining rivojlanishiga ko'ra
43. Qaysi javobda arxegoniy hosil qiluvchi (a) va markaziy hujayra hosil qiluvchi (b) ko'p yillik o'simliklar berilgan?  
A) a - ebalak, funariya; b - giatsint, nargis  
B) a - sekvoyadendron, oq sho'ra; b - albitsiya, lipa  
C) a - dala qirg'bo'g'imi, zuhrasoch; b - budleya, floks  
D) a - pixta, qoraqarag'ay; b - machin, zarang
44. Qaysi javobda voyaga yetish davrida tana tuzilishi va hayot kechirish tarzida katta o'zgarish sodir bo'lmaydigan umurtqasizlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) chigirtka; 2) ninachi; 3) triton; 4) qandala; 5) suvarak; 6) kuya; 7) baqa  
A) 2, 3, 4, 7 B) 1, 4, 5 C) 2, 5, 6 D) 1, 2, 5, 6
45. Kaputsin bilan bir sinfga (a) va jo'rchi bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.  
A) a-gornostay, sayg'oq, o'rdakburun; b-qarchig'ay, qirg'iy, ukki  
B) a-gavial, kashalot, yexidna; b-suqsun, kalxat, miqqiy  
C) a-kuropatka, yelik, yexidna; b-qarchig'ay, boyo'g'li, miqqiy  
D) a-gibbon, kasatka, yexidna; b-qarchig'ay, arixo'r qush, miqqiy
46. Beluga va gulumoyi uchun xos umumiy xususiyatlarni aniqlang.  
1) tanasi bo'ylab 5 qator romb shaklidagi suyak plastinkalar joylashgan; 2) umurtqa pog'onasiga ega; 3) miya qutisi rivojlangan; 4) og'iz teshigi boshining ostki tomonida joylashgan; 5) xordasi butun hayoti davomida saqlanib qoladi; 6) orqa suzgichi ortida yana bitta suzgichi bo'ladi; 7) ko'krak suzgichi bir juft  
A) 4, 5, 7 B) 2, 3, 7 C) 1, 4, 6 D) 2, 3, 6
47. Hozirgi qushlarning ajdodini belgilang.  
A) pterodaktil B) arxeopteriks C) protoavis  
D) diplodok

48. O'simlikxo'r umurtqali (a), yirtqich umurtqasiz (b) hayvonlarni aniqlang.  
1) sayg'oq; 2) tillako'z; 3) kolorado qo'ng'izi; 4) muflon;  
5) bo'rsiq; 6) hasva qandalasi; 7) xonqizi; 8) zlatka; 9) biy;  
10) ko'l baqasi  
A) a - 3, 8; b - 5, 10 B) a - 4, 5; b - 7, 10  
C) a - 2, 3; b - 6, 9 D) a - 1, 4; b - 2, 7
49. Odam yuragiga xos bo'lmagan ma'lumotni aniqlang  
A) o'ng bo'lmacha qisqarganda uch tavaqali klapan yopiladi  
B) chap bo'lmacha qisqarganda ikki tavaqali klapan ochiladi  
C) o'ng qorincha qisqarganda qon o'pka arteriyasiga chiqadi  
D) chap qorincha qisqarganda qon aortaga chiqadi
50. Odam tanasidagi tashqi qovurg'alararo muskullarga xos to'g'ri ma'lumotni belgilang.  
A) Ko'krak qafasi muskullari guruhiga mansub, nafas olish va chiqarishda qisqaradi  
B) Funksiyasi bosh miya katta yarimsharlari po'stloq qismining orqa markaziy pushtasi tomonidan boshqariladi  
C) Orqa miya bo'yin segmentining oldingi shoxidan chiquvchi sezuvchi va orqa shoxidan chiquvchi harakatlantiruvchi nerv tolalari orqali boshqariladi  
D) Hujayralari tarkibidagi miofibril tolalari hisobiga qisqarib-yoziladi, gavda muskullari guruhiga kiradi
51. Odam organizmidagi bosh miya katta yarimsharlarining oq moddasi orasida (a) va bosh miya stvol qismida (b) joylashgan nerv markazlarini aniqlang.  
1) nafas olish nerv markazi; 2) yurak ishini boshqaruvchi nerv markazi; 3) tana muskullari tarangligini boshqaruvchi nerv markazi; 4) po'stloqosti eshitish markazlari; 5) targ'il tana; 6) oqimtir yadro; 7) uchlik nervi markazi.  
A) a - 2, 5, 6, 7; b - 1, 3, 4 B) a - 1, 2, 3; b - 4, 5, 6, 7  
C) a - 4, 5, 6, 7; b - 1, 2, 3 D) a - 3, 5; b - 1, 2, 4, 7
52. Odam a'zolaridan ajraladigan gormonlar to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
a) gipofizning o'rta bo'lagi; b) gipofizning orqa bo'lagi;  
c) ayrisimon bez; d) epifiz; e) buyrakusti bezining po'stloq qavati; f) buyrakusti bezining miya qavati; g) oshqozon osti bezi;  
1) glyukokortikoid; 2) estrogen; 3) noradrenalin; 4) timozin;  
5) intermedin; 6) tripsin.  
A) b - 5, c - 4, e - 1, g - 6  
B) a - 5, c - 4, e - 1, f - 3  
C) a - 5, b - 3, e - 2, f - 3  
D) b - 5, c - 4, d - 1, f - 2
53. Quyida berilgan misollar turning qaysi mezonlarining nisbiy ekanligini ifodalaydi?  
1) gorilla va shimpanze kariotipi 48 ga teng; 2) erkak va urg'ochi o'rdak tashqi qiyofasi bilan farq qiladi; 3) xonqiziga taqlid qiluvchi suvaraklar bor; 4) odam va shimpanze qonidagi gemogloblin  $\alpha$ -zanjiridagi aminokislotalar ketma-ketligi bir xil; 5) tovushqonlarning har xil turlari o'zaro chatishib nasl beradi  
A) 1 - genetik; 2, 3 - morfologik; 4 - fiziologik; 5 - biokimyoviy  
B) 1 - genetik; 2, 3 - morfologik; 4 - biokimyoviy; 5 - fiziologik  
C) 1 - genetik; 2, 3 - fiziologik; 4 - biokimyoviy; 5 - ekologik  
D) 1 - morfologik; 2 - genetik; 3 - morfologik; 4 - biokimyoviy; 5 - fiziologik
54. Ba'zi bir pashshalarning, ayrim kapalak turlarining rang jihatdan arilarga, suvaraklarning tugmacha qo'ng'izlarga o'xshashi evolyutsion jarayonning qaysi yo'nalishiga va qaysi holatiga misol bo'ladi?  
1) biologik regress; 2) biologik progress;  
a) aromorfoz; b) idioadaptatsiya; c) umumiy degeneratsiya  
A) 2 - b B) 1 - b C) 2 - c D) 2 - a
55. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfoz natijasida paydo bo'lgan?  
1) sutemizuvchilar; 2) mushuksimonlar; 3) yashil qurbaqa;  
4) ssifoid meduzalar; 5) kavsh qaytaruvchilar; 6) hasva qandalasi; 7) o'rgimchaksimonlar.  
A) 3, 6, 7 B) 2, 5, 6 C) 2, 3, 5 D) 1, 4, 7
56. Biosfera evolyutsiyasining birinchi bosqichida qanday jarayonlar sodir bo'lgan?  
1) dastlabki ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lgan;  
2) tanasi kalamushdek keladigan dastlabki sutemizuvchi hayvonlar kelib chiqqan; 3) qanotli hasharotlar rivojlangan;  
4) daraxtsimon o'simliklarning yoppasiga halok bo'lishi natijasida ko'mir qatlamini hosil bo'lgan; 5) qirg'oqqa yaqin joylashgan suvo'tlarning tanasi tabaqalashgan; 6) dastlabki aerob organizmlar rivojlangan  
A) 1, 5, 6 B) 2, 3, 4 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5
57. DNK molekulasida adenin va timin orasida ikkita, guanin va sitozin orasida uchta vodorod bog' bor, qo'shni nukleotidlar orasi 0,34 nm ga teng. Ma'lum DNK bo'lagida 1050 ta vodorod bog' bo'lib, shundan 60% guanin va sitozin orasida bo'lsa, shu DNK bo'lagidagi nukleotidlarning jami sonini toping.  
A) 410 B) 420 C) 820 D) 840
58. 1260 g glukoza ishtirokida sodir bo'ladigan energetik almashinuvning aerob bosqichida sintezlanadigan ATF da to'plangan energiya miqdori fotosintez jarayonida shuncha glukoza sintezlanishi uchun sarf bo'ladigan ATF dagi energiya miqdoridan qancha (kJ) ga ko'p?  
A) 4050 B) 5400 C) 5004 D) 5040
59. Beda gulining yashil rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi gulning qizil, B genining dominant holatda bo'lishi gulning sariq, dominant genlarning uchramasligi gulning oq bo'lishini ta'minlansa, digeterozigota genotipli o'simliklar o'zaro chatishtirilishidan olingan avlodning necha foizini fenotip va genotip jihatdan ota-onaga o'xshash organizmlar tashkil qiladi?  
A) 31,25 B) 75 C) 37,5 D) 25
60. Daltonizm va shabko'rlikni yuzaga chiqaruvchi retsessiv genlar X xromosomada joylashgan bo'lib, birikkan holda irsiylanadi. Onasi shabko'rlik bilan, otasi esa daltonizm bilan kasallangan, o'zining ko'rish qobilyati normal bo'lgan ayol faqat shabko'rlik bilan kasallangan erkakka turmushga chiqdi. Agar ayolda krossingover 40% ga teng bo'lsa, bu oilada o'g'il bolalarning kasal tug'ilish ehtimolligini (%) aniqlang. Erkaklarda krossingover kuzatilmagan.  
A) 60 B) 10 C) 20 D) 40

## KIMYO

61. Magniy karbonat tarkibidagi kislorodning massa ulushini (%) aniqlang.  
A) 48 B) 38 C) 19 D) 57
62. Natriy, bariy va xrom(III) oksidlaridan iborat 19 g aralashmaning sulfat kislotasi bilan ta'sirlashuvidan 31 g shu metallarning sulfatlari aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu jarayonda necha gramm suv hosil bo'ladi?  
A) 2,7 B) 3,6 C) 1,8 D) 0,9
63. To'rtinchi energetik pog'ona(qavat)ga maksimal sig'ishi mumkin bo'lgan elektronlar sonini aniqlang.  
A) 24 B) 18 C) 16 D) 32

64. Berilgan tartibda element ionining radiusi qanday o'zgaradi?  
 $Se^{4+} \xrightarrow{1} Se^{2-} \xrightarrow{2} Se^{2+} \xrightarrow{3} Se^{6+}$   
 a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.  
 A) 1-b; 2-a; 3-c B) 1-a; 2-b; 3-b C) 1-b; 2-c; 3-b  
 D) 1-c; 2-a; 3-b
65. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?  
 $NH_3 \xrightarrow{1} CH_4 \xrightarrow{2} H_2O \xrightarrow{3} HF$   
 a) ortadi; b) kamayadi  
 A) 1-b; 2-b; 3-a B) 1-b; 2-a; 3-a C) 1-a; 2-b; 3-a  
 D) 1-b; 2-a; 3-b
66. Metallning galogenli birikmasi tarkibida 80% galogen, uning oksidi tarkibida 28,57% kislorod bor. Galogeni aniqlang.  
 A) fluor B) xlor C) brom D) yod
67. Harorat  $10^\circ C$  ga oshganda reaksiya tezligi 2 marta ortsa, ushbu reaksiya harorati  $40^\circ C$  dan  $100^\circ C$  gacha ko'tarilganda, reaksiya tezligi necha marta ortadi?  
 A) 8 B) 64 C) 4 D) 16
68. 3 litr 0,1M li eritma tayyorlash uchun necha gramm aluminiy sulfat olish kerak?  
 A) 34,2 B) 114 C) 102,6 D) 11,4
69. 4M metall xlorid ( $ECl_2$ ) eritmasining 125 millilitri 250 grammga teng. Eritma 25,4% li ekanligi ma'lum bo'lsa, E elementning nisbiy atom massasini hisoblang.  
 A) 40 B) 65 C) 64 D) 56
70. Eritmalarda gidroliz jarayonini tezlashtirish uchun qanday jarayonlarni amalga oshirish kerak?  
 1) eritmani suyultirish; 2) haroratni oshirish; 3) eritmani konsentrlangan holda saqlash; 4) haroratni pasaytirish  
 A) 1, 4 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 1, 2
71. Eritmaning pH qiymati pOH qiymatidan 1,8 marta kam bo'lsa, pH qiymatini aniqlang.  
 A) 7 B) 6 C) 5 D) 4
72.  $XO_4^- \rightarrow X^{2+}$   
 Ushbu qaytarilish jarayonida  $X^{2+}$  qabul qilgan elektronlar soni dastlabki X ning protonlari sonidan 5 marta kam bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.  
 A) Co B) Ni C) Mn D) Cr
73. O'rta tuzdan uning nordon tuzi olinadi. 16,8 g natriy gidrosulfidni olish uchun qanday hajmdagi (l, n.sh.) gaz kerak bo'ladi?  
 A) 10,08 B) 6,72 C) 13,44 D) 3,36
74. Mis(II) sulfat eritmasiga massasi 33,6 g temir plastinka tushirildi. Biroz vaqtdan keyin plastinka eritmadan olinib, quritildi. Plastinkaning massasi 36,8 g ga teng bo'ldi. Reaksiyaga kirishgan temirning massasini (g) aniqlang.  
 A) 22,4 B) 11,2 C) 33,6 D) 3,2
75. Berilgan kompleks birikmalardan neytral kompleksni tanlang.  
 A)  $[Ag(NH_3)_2]Cl$  B)  $K_4[Fe(CN)_6]$  C)  $(AlOH)_3(PO_4)_2$   
 D)  $[Co(NH_3)_3(NO_2)_3]$
76. Tarkida 50,45% kislorod saqlagan element oksidi qizdirilganda 36,78% kislorod saqlagan IV valentli element oksidi hosil bo'ldi. Ushbu elementni aniqlang.  
 A) Cr B) S C) Mn D) Cu
77. Mis(II) oksidining X g miqdorini erkin metallgacha qaytarish uchun necha gramm C sarf bo'ladi?  
 A) 12X/40 B) 3X/20 C) X-68 D) 12X/5
78. 1,25 mol  $CaXO_3$  birikma tarkibida X ning massasi Ca va O ning birgalikdagi massasidan 95 g ga kam bo'lsa, X ni aniqlang.  
 A) Mn B) C C) Si D) S
79. 18,2 g  $Ca_3P_2$  dan olingan fosfinning to'la yonishidan hosil bo'lgan  $P_2O_5$  ning massasini (g) aniqlang.  
 A) 14,2 B) 6,1 C) 8,9 D) 4,0
80. 1000 g 22,04%li natriy gidrofosfat eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml ortofosfat kislotaga eritmasidan qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi natriy digidrofosfat tuzining massa ulushi natriy gidrofosfat tuzining massa ulushidan 4 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan fosfat kislotaga eritmasining molyarligini (M) aniqlang.  
 A) 3 B) 4 C) 2 D) 1
81. Metilsiklobutanni necha xil digalogenli alkandan Zn metali ta'sir ettirib olish mumkin?  
 A) 4 B) 2 C) 3 D) 1
82. Dixloretan ombor zararkunandalariga qarshi kurashda ishlatiladi. Agar har bir  $m^3$  hajmga 0,2 kg dan dixloretan ishlatilsa, 300  $m^3$  hajmdagi xonani zararsizlantirish uchun qancha miqdorda (mol) dixloretan zarur bo'ladi?  
 A) 1500 B) 606 C) 250 D) 530
83. Shorigin usuli bo'yicha 2,5-dimetilgeksadiyen-1,5 ni qanday moddadan olish mumkin?  
 A) 3-brompropendan B) 2-brombuten-2 dan  
 C) 3-brom-2-metilpropendan D) 3-brombuten-2 dan
84. 0,075 mol butadiyen-1,3 ni gidrogenlash natijasida olingan buten va butan aralashmasi brom eritmasi orqali o'tkazilganda 5,4 g 1,2-dibrombutan hosil bo'lsa, olingan aralashmadagi buten va butanning massalarini (g) aniqlang.  
 A) 1,4;2,9 B) 1,4;1,45 C) 2,1;2,9 D) 0,7;2,9
85. Kumush ko'zgu reaksiyasiga kirishadigan moddalar qatorini ko'rsating.  
 A) sirka aldegid, chumoli kislotaga, glitserin  
 B) formaldegid, sirka kislotaga, fenol  
 C) chumoli kislotaga, sirka aldegid, formaldegid  
 D) formaldegid, etanol, dietilefir
86. Bir atomli to'yingan spirt karbon kislotaga qadar oksidlandi. Bunda  $sp^3$ -gibrid orbitallar soni 1,5 marta kamaydi. Spirtini aniqlang.  
 A) propanol B) butanol C) etanol D) metanol
87. 17,6 g murakkab efir kislotali sharoitda gidrolizga uchraganda 0,2 mol etanol hosil bo'ldi. Bu jarayonda necha gramm va qaysi karbon kislotaga hosil bo'lganligini aniqlang.  
 A) 41,8; moy kislotaga B) 24; propion kislotaga  
 C) 12; sirka kislotaga D) 14,8; sirka kislotaga
88. 15,9 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislotaga olinadi? ( $\eta=0,75$ )  
 A) 28,8 B) 16,2 C) 43,2 D) 21,6
89. Sil kasalligini davolashda qaysi geterosiklik birikma ishlatiladi?  
 A) piridoksin B) izoniazid C) piridoksal D) tiofen
90. To'ldiruvchilar uchun xos bo'lgan xususiyatni belgilang.  
 A) plastmassalar plastikligini oshiradi  
 B) plastmassalarning agressiv moddalar ta'siriga barqarorligini oshiradi  
 C) uglevodorodlarning galoidli birikmalari hisoblanadi  
 D) plastmassalar erish temperaturasini pasaytiradi